

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
482 sahifa, sentyabr, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlar va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakatlari milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellectual mulk", "Intellectual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnadbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozorida rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili	131
Ismoyilov I.B., Qayumov J.A., Ismoyilov F.B., Qo'ldoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevena	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budjet siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini tahlili	216
Xatamov Nurbek Ochidiyevich	
O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning shakllari	222
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Turizm va mehmonxona industriyasida xizmatlar sifatini oshirishda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida innovatsiyalar va tadbirkorlik amaliyotining o'rganilishi	227
Kamolova Mohinur Iskandarovna	
Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati.....	239
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li	



Big data и искусственный интеллект как драйверы цифровой экономики	242
Бозорова Ирина Жуманазаровна	
Mahalliyashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili va rivojlantirish istiqbollari (Namangan viloyati misolida)	247
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Temir yo'l transportida yo'llarni ta'mirlash korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish	254
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
Актуальные вопросы финансирования инвестиционных проектов	259
Шомуродов Равшан Турсункулович. Рашидова Дилфуза Ганиевна	
Milliy darajada iqtisodiy xavfsizlikning ekologik omillari	266
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
Zamonaviy texnologiyalar va raqamli yondashuvlarning individuallashtirilgan xizmatlarda tutgan o'rni	276
Raxmatov Aziz Tolipovich	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish	280
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	
Mahalliy moda brendlarini iste'molchilar kiyinish imijiga ta'sirini ekonometrik baholash	286
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
Moliyaviy innovatsiyalarni banklarga joriy etishning afzalliklari	290
Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	
Kichik biznesni innovatsion rivojlantirish strategiyasi	295
Muxitdinov Shuxrat Ziyaviddinovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida parrandachilikni rivojlantirishni modellashtirish usullari	299
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
Mehnat resurslaridan foydalanishning xususiyatlari va tashkil etish mezonlari	306
Kobilova Zebo Bobokulovna	
Зелёное бюджетирование как инструмент повышения эффективности управления государственными финансами	311
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy nazariy qarashlar	318
Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	
Особенности создание полимерных композиционных материалов на основе вторичного сырья	324
Маджидов Абдинаби Аманович	
O'zbekistonning BMT "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi"dagi o'rnini yaxshilash choralari	330
Umarova Durdona Abdumannabovna	
Ekologik auditning axborot bilan ta'minlanishi	335
Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li	
Анализ механизмов управления и контроля финансовыми ресурсами на предприятиях с государственной долей, на примере АО "Узметкомбинат"	340
Ахмедов Дилшод Турсункулович	
O'zbekiston Respublikasida QQS ma'murchiligi amaliyoti tahlili	347
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
Сравнительный анализ отечественных и зарубежных подходов к оценке финансовой устойчивости компаний	354
Утемуратова Магрифа Пердебаевна	
Uy - joy kommunal xo'jaligi sohasida innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini yanada takomillashtirish	359
Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Matkomilov Mirjalol Mirkomil o'g'li	



Namangan viloyatida nodavlat maktablar salohiyati.....	363
Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li	
Kimyo sanoatida loyihalarni baholash va monitoring qilishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....	369
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
Gaz va gazkondensatning harakatlanish qobiliyatini oshirish usullar tahlili	374
Abdirazakov Akmal Ibragimovich, Boymurodov Boynazar Muradillayevich	
O'zbekiston sharoitida Agile davlat boshqaruvining kelajak istiqbollari	379
Sayfiyev Jasur Ravshanovich	
Bank korporativ boshqaruv samaradorligi va uning moliyaviy ko'rsatkichlari	384
Temirov Abdulaziz Alimjanovich	
Tijorat banklarining moliyaviy risklari	390
Suxrob Narzullayevich Xolmatov	
Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ekonometrik modellash va tahlil qilish.....	395
Djabbarov Rahimjon Abdullayevich	
To'qimachilik sanoatini iqtisodiy jihatdan rivojlanishida asosiy ko'rsatkichlarini prognozlash algoritmi	400
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
O'zbekiston iqtisodiyotida qarz mablag'lari va xorijiy valyuta ayirboshlash bozorlarining ta'minot va talab mexanizmlari: nazariy asoslar va amaliy tahlil	406
Xalilova Sevaraxon Alijon qizi	
Tijorat bankining moliyaviy barqarorligini shakllantiruvchi va unga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik baholash	414
Umarov Davron Shavkatovich	
O'zbekistonda raqamli bozorlar rivojlanishi: asosiy tendensiyalar va raqobat holati	424
Saparov Islom O'lmasovich	
Rivojlangan mamlakatlar soliq mexanizmini qo'llash orqali O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini barqaror rivojlantirish	430
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li	
RAQAMLI TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNI JORIY ETISHDA QO'LLANALADIGAN IQTISODIY MODEL.....	437
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
NONPARAMETRIC SEQUENTIAL CONFIDENCE ESTIMATION BY FIXED-WIDTH CONFIDENCE INTERVALS: ASYMPTOTIC CONSISTENCY AND ASYMPTOTIC EFFICIENCY	444
Tursunov Gafur Tairovich	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	453
A.A. Ismailov	
"HOZIRGI RAQAMLI ASRDA STARTAPLARNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI"	459
Sultonov Omon Juma o'g'li	
MA'LUMOTLARNI TOZALASH VA OPTIMALLASHTIRISHNING STATISTIK USULLARI	463
Qosimjonov G'ulomjon Qosimovich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAYYORLANGAN MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI O'TKAZISH XUSUSIYATLARI	467
Meliev Isroil Ismoilovich	
YAPONIYA TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	473
Rahimov Akmal Matyaqubovich	



YAPONIYA TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Rahimov Akmal Matyaqubovich

TDIU mustaqil izlanuvchisi

E-mail: a.rahimov@tsue.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yaponiya tijorat banklarida depozit operatsiyalarining rivojlanish jarayoni makroiqtisodiy omillar bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilinadi. Tadqiqotda inflyatsiya va yalpi ichki mahsulot o'sishi sharoitida jami depozitlar hajmi hamda depozit foiz stavkalarining o'zgarish dinamikasi izchil yoritilgan. Statistik ma'lumotlar Yaponiya bank tizimida depozitlar uzoq muddat davomida past foizli muhitga moslashgan holda barqaror resurs sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Inflyatsiyaning oshishi depozitlarning real daromadlilikini cheklagan bo'lsa-da, iqtisodiy o'sish va jamg'arma madaniyati depozitlar hajmining barqaror o'sishini ta'minlagan. Shuningdek, depozit foiz stavkalarining so'nggi davrda qayta faollashuvi banklar depozit siyosatining moslashuvchanlashayotganidan dalolat beradi. Tadqiqot natijalari Yaponiya tajribasida depozitlar bank tizimi barqarorligining asosiy tayanchi ekanini hamda ushbu modeldan boshqa mamlakatlar, jumladan O'zbekiston tijorat banklari depozit siyosatini takomillashtirishda foydalanish mumkinligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: Yaponiya bank tizimi, tijorat banklari, depozit operatsiyalari, depozitlar hajmi, depozit foiz stavkalari, inflyatsiya, YAIM o'sishi, bank barqarorligi.

Abstract: This article analyzes the development of deposit operations in Japanese commercial banks in close connection with macroeconomic factors. The study consistently examines the dynamics of total deposit volumes and deposit interest rates under conditions of changing inflation and GDP growth. Statistical evidence indicates that deposits in Japan have evolved over a long period as a stable source of funding adapted to a low-interest-rate environment. Although rising inflation has constrained the real return on deposits, economic growth and a strong savings culture have supported a steady increase in deposit volumes. In addition, the recent revival of deposit interest rates reflects a gradual increase in the flexibility of banks' deposit policies. The findings demonstrate that deposits remain a key pillar of financial stability in the Japanese banking system and suggest that this experience may be applied to improve deposit policies in other countries, including Uzbekistan.

Keywords: Japanese banking system, commercial banks, deposit operations, deposit volume, deposit interest rates, inflation, GDP growth, financial stability.

Аннотация: В статье анализируется процесс развития депозитных операций в коммерческих банках Японии в тесной взаимосвязи с макроэкономическими факторами. В исследовании последовательно рассматривается динамика объёма совокупных депозитов и процентных ставок по депозитам в условиях изменения инфляции и роста валового внутреннего продукта. Статистические данные свидетельствуют о том, что депозиты в банковской системе Японии на протяжении длительного периода сформировались как стабильный источник ресурсов, адаптированный к среде низких процентных ставок. Несмотря на то что рост инфляции ограничивал реальную доходность депозитов, экономический рост и развитая культура сбережений обеспечили их устойчивое увеличение. Кроме того, недавняя активизация депозитных процентных ставок указывает на повышение гибкости депозитной политики банков. Результаты исследования показывают, что депозиты остаются ключевой основой финансовой устойчивости банковской системы Японии, а данный опыт может быть использован при совершенствовании депозитной политики коммерческих банков других стран, включая Узбекистан.

Ключевые слова: банковская система Японии, коммерческие банки, депозитные операции, объём депозитов, процентные ставки по депозитам, инфляция, рост ВВП, финансовая устойчивость.

KIRISH

Yaponiya bank tizimi uzoq yillar davomida barqarorlik, ishonchlilik va an'anaviy moliyaviy qadriyatlarga sodiqligi bilan ajralib keladi. Ushbu tizimda tijorat banklari faoliyatining asosiy tayanch manbalaridan biri depozit operatsiyalari hisoblanib, ular nafaqat banklarning resurs bazasini shakllantiradi, balki butun moliyaviy tizimning uzluksiz ishlashini ta'minlovchi muhim mexanizm vazifasini ham bajaradi. Yaponiya iqtisodiyotida

aholi va korporativ sektor jamg'armalarining yuqori ulushi bank depozitlarining strategik ahamiyatini yanada kuchaytiradi hamda ushbu yo'nalishda shakllangan tajribani ilmiy jihatdan o'rganishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Yaponiya jamiyatiga xos bo'lgan tejamkorlik madaniyati, uzoq muddatli rejalashtirishga asoslangan moliyaviy xulq-atvor hamda bank tizimiga nisbatan yuqori ishonch depozit operatsiyalarining rivojlanishiga mustahkam zamin yaratgan. Aholi o'z mablag'larini banklarda saqlashni nafaqat daromad olish vositasi, balki moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning ishonchli yo'li sifatida ham qabul qiladi. Shu jihatdan, Yaponiya tijorat banklarida depozitlar asosan barqaror va uzoq muddatli resurs sifatida shakllanib, banklarning kredit va investitsiya faoliyatini uzluksiz moliyalashtirish imkonini beradi.

So'nggi o'n yilliklarda Yaponiya moliya bozorida kuzatilayotgan past, hatto nolga yaqin foiz stavkalari sharoitida depozit operatsiyalarining rivojlanishi o'ziga xos yo'nalishda kechmoqda. An'anaviy foiz daromadiga asoslangan depozit siyosati o'z ahamiyatini qisman yo'qotib, banklar depozitlarni jalb etishda ishonch, qulaylik, xizmat sifati va texnologik imkoniyatlarga tayanishga majbur bo'lmoqda. Bu jarayonda pul-kredit siyosatini yurituvchi markaziy institut — Bank of Japan tomonidan amalga oshirilayotgan uzoq muddatli monetar strategiya tijorat banklari depozit siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, resurslarni saqlab qolish va ularning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan yondashuvlarni shakllantirmoqda.

Raqamli texnologiyalar, masofaviy bank xizmatlari va naqd pulsiz hisob-kitoblarning keng joriy etilishi Yaponiya tijorat banklarida depozit operatsiyalarining mazmunini ham o'zgartirib bormoqda. Depozit endilikda faqat mablag'ni saqlash vositasi emas, balki keng qamrovli moliyaviy xizmatlar majmuasining markaziy elementi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, Yaponiya banklari an'anaviylik va ehtiyotkorlik tamoyillarini saqlab qolgan holda, depozitlar bilan bog'liq operatsiyalarda xavfsizlik va barqarorlikni ustuvor yo'nalish sifatida belgilamoqda.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi Yaponiya tijorat banklarida depozit operatsiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlarini nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilish, ushbu jarayonga ta'sir etuvchi institutsional, iqtisodiy va madaniy omillarni aniqlash hamda ilg'or tajribani umumlashtirishdan iborat. Tadqiqot natijalari Yaponiya bank tizimida depozitlar barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini chuqurroq anglashga xizmat qilishi bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston tijorat banklari depozit siyosatini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yaponiya bank tizimida depozit operatsiyalarining rivojlanishi masalasi xalqaro moliyaviy institutlar va milliy regulyatorlar tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xususan, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlar Yaponiya tijorat banklarida depozitlar uzoq muddat davomida barqaror moliyaviy resurs sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotlarda depozitlar hajmining o'sishi past foizli muhitga qaramay iqtisodiy barqarorlik va jamg'arma madaniyati bilan bog'liq holda izohlanadi.

Yaponiya Markaziy banki tomonidan muntazam e'lon qilinadigan statistik sharhlar depozit foiz stavkalari va ularning muddatlar bo'yicha farqlanishi masalasini chuqur yoritadi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, uzoq vaqt davomida depozitlar bo'yicha foiz stavkalari juda past darajada saqlangan bo'lsa-da, bu holat depozitlar oqimining keskin qisqarishiga olib kelmagan. Tadqiqotlarda bank tizimiga bo'lgan ishonch va xizmat sifati depozitlarni jalb etishda foiz omilidan ustun ekanligi ta'kidlanadi.

Jahon banki tomonidan taqdim etilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar Yaponiya iqtisodiy o'sishi va depozitlar dinamikasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu manbalarda yalpi ichki mahsulot o'sishining tiklanishi jamg'armalar hajmining kengayishiga xizmat qilgani qayd etilib, depozitlar iqtisodiy sikllarga nisbatan nisbatan barqaror resurs ekanligi ilmiy asoslanadi. Bu holat Yaponiya bank tizimining institutsional mustahkamligini ko'rsatadi.

Yaponiya Markaziy banki va Moliya xizmatlari agentligi tomonidan e'lon qilingan tahliliy hisobotlarda depozit bozorida tarkibiy o'zgarishlar va bank guruhlar kesimidagi konsentratsiya masalalari o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar yirik banklar depozit bozorida yetakchi mavqega ega ekanini, mintaqaviy va kooperativ banklar esa hududiy barqarorlik va moliyaviy inkluziyada muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Depozit siyosatining moslashuvchanligi bank tizimi barqarorligining muhim omili sifatida baholanadi.

Depozitlarni kafolatlash tizimi faoliyati bo'yicha Yaponiya Depozitlarni Sug'urtalash Korporatsiyasi hamda AQSh tajribasiga oid materiallar depozitlar barqarorligini ta'minlashda institutsional mexanizmlarning ahamiyatini ochib beradi. Ushbu tadqiqotlarda depozitlarni himoyalash tizimi omonatchilar ishonchini mustahkamlashi va moliyaviy inqirozlar sharoitida bank tizimi barqarorligini saqlashda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. Natijada Yaponiya tajribasi depozit operatsiyalarini rivojlantirishda institutsional ishonch va ehtiyotkor siyosatning ustuvorligini ko'rsatadi.




TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot Yaponiya tijorat banklarida depozit operatsiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlarini chuqur va tizimli tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda zamonaviy bank tadqiqotlarida keng qo'llaniladigan ilmiy yondashuvlar uyg'unligidan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi bank tizimining barqaror ishlashida depozit operatsiyalarining tutgan o'rnini tarixiy, institutsional va iqtisodiy omillar kesimida baholash imkonini beruvchi kompleks yondashuv asosida shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yaponiya tijorat banklarida depozit operatsiyalarining amaldagi holati, ularning rivojlanish tendensiyalari hamda ushbu jarayonga ta'sir etuvchi asosiy omillar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Depozit operatsiyalari bank tizimining eng muhim funksional yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rib chiqilib, ularning hajmi, tuzilmasi va barqarorligi Yaponiya moliya bozorining umumiy holati bilan uzviy bog'liqlikda baholanadi. Tahlil jarayonida depozitlarning bank resurs bazasidagi o'rni nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham yoritilib, ularning uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Yaponiya bank tizimida depozitlar dinamikasini tahlil qilishda mamlakatga xos iqtisodiy sharoitlar, xususan, uzoq yillar davomida amal qilib kelayotgan past foiz stavkalari siyosati alohida e'tiborga olinadi. Ushbu sharoitda depozitlar o'sishi yoki ularning tarkibiy o'zgarishi klassik bank nazariyasida qabul qilingan omillardan farqli ravishda, aholi va biznes subyektlarining moliyaviy xulq-atvori, ishonch darajasi hamda bank xizmatlarining qulayligi bilan chambarchas bog'liq holda shakllanmoqda. Shu sababli, tahlil natijalari depozit operatsiyalarini faqat foiz mexanizmi orqali emas, balki institutsional va ijtimoiy omillar orqali izohlash zaruratini yuzaga chiqaradi.



1-rasm. Yaponiyada inflyatsiya va YAIM o'sish sur'atlari dinamikasi¹ (31-dekabr holatiga)

Keltirilgan ma'lumotlar Yaponiyada inflyatsiya va yalpi ichki mahsulot o'sishining yil yakunlari kesimidagi umumiy dinamikasini hamda ushbu jarayonlarning tijorat banklaridagi depozit operatsiyalariga ta'sirini izchil tarzda yoritib beradi. Uzoq vaqt davomida past inflyatsiya va sust iqtisodiy o'sish bilan tavsiflangan Yaponiya iqtisodiyoti 2020-yildan keyingi davrda bosqichma-bosqich faollashib, narxlar darajasi va ishlab chiqarish hajmlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatila boshladi. Bu jarayon depozitlar xulq-atvorini ham klassik nazariy modellardan farqli yo'nalishda shakllantirdi.

Inflyatsiyaning deflyatsion hududdan ijobiy darajalarga chiqishi depozitlarning real daromadlilikini bosqichma-bosqich pasaytirgan bo'lsa-da, YAIM o'sishining tiklanishi va keyinchalik tezlashuvi jamg'armalar shakllanishi uchun zarur iqtisodiy asosni yaratdi. Natijada inflyatsion bosim depozitlar uchun salbiy omil sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, iqtisodiy o'sish ushbu salbiy ta'sirni qisman kompensatsiya qilgan. Shu jihatdan qaralganda, depozitlar dinamikasi inflyatsiya yoki YAIMning alohida ta'siri bilan emas, balki ularning o'zaro muvozanati orqali shakllangan [1].

Narxlar darajasining o'sishi fonida depozitlar bo'yicha nominal foiz stavkalari uzoq vaqt davomida past darajada saqlanib qolgani real foiz stavkalarining manfiy hududga o'tishiga olib keldi. Biroq bu holat Yaponiya

¹ <https://data.worldbank.org/country/japan> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

bank tizimida depozitlar oqimining keskin qisqarishiga sabab bo'lmadi. Aholi va biznes subyektlari uchun depozitlar foiz daromadidan ko'ra ko'proq xavfsizlik, likvidlik va barqarorlik funksiyasini bajardi. Iqtisodiy o'sishning tiklanishi bilan birga daromadlarning kengayishi depozitlarga qo'yiladigan mablag'lar hajmini saqlab qolishga xizmat qildi, inflyatsiya esa ularning real qiymatini qisqartirgan bo'lsa-da, jamg'arma xulq-atvorini tubdan o'zgartirmadi.

1-jadval. Yaponiya tijorat banklarida jami depozitlar hajmi o'sish dinamikasi² (31-dekabr holatiga)

Yil	Jami depozitlar, trln JPY	Yillik o'zgarish, trln JPY	Yillik o'sish, %
2020	843.6679	22.2760	2.71
2021	931.0097	87.3418	10.35
2022	960.5279	29.5182	3.17
2023	990.6361	30.1082	3.13
2024	1,015.2306	24.5945	2.48

Yaponiyada jami depozitlar hajmining o'sishi inflyatsiya va yalpi ichki mahsulot dinamikasi bilan murakkab, biroq izchil bog'liqlikda shakllanganini ko'rsatadi. Depozitlar hajmining 2020–2024-yillar oralig'ida muttasil oshib borishi, o'sish sur'atlarining esa bosqichma-bosqich sekinlashuvi Yaponiya bank tizimiga xos barqaror jamg'arma modelining saqlanib qolganini tasdiqlaydi. Ushbu jarayonda makroiqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar depozitlarning miqdoriy o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, bu ta'sir keskin va beqaror xarakter kasb etmagan [2].

Inflyatsiyaning deflyatsion holatdan chiqib, ijobiy darajalarga ko'tarilishi depozitlarning real qiymatiga bosim o'tkazganiga qaramay, YAIM o'sishining tiklanishi va keyinchalik tezlashuvi jamg'arma imkoniyatlarini kengaytirgan. Ayniqsa, iqtisodiy faollik keskin oshgan davrda depozitlar hajmining yuqori sur'atlarda ko'paygani iqtisodiyotda shakllangan qo'shimcha daromadlar bank tizimiga qayta yo'naltirilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasining oshishi depozitlar o'sishini to'xtatib qo'ymagan, balki ularning o'sish sur'atlarini me'yoriy darajaga tushirgan.


Keyingi davrda inflyatsiya va YAIM o'sishining nisbatan barqarorlashuvi depozitlar dinamikasida ham o'z aksini topgan. Depozitlar hajmi muttasil oshishda davom etgan bo'lsa-da, o'sish sur'atlari keskin pasayib, nisbatan barqaror diapazonda shakllangan. Bu holat Yaponiya bank tizimida depozitlarning iqtisodiy sikllarga nisbatan moslashuvchan, ammo yuqori darajada barqaror resurs ekanini ko'rsatadi. Ya'ni, iqtisodiy o'sish sekinlashgan sharoitda ham depozitlar qisqarmagan, aksincha, pastroq sur'atlarda bo'lsa-da, o'sishda davom etgan.

Inflyatsiya va YAIM o'rtasidagi o'zaro muvozanat depozitlar xulq-atvorini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Inflyatsiya depozitlarning real daromadlilikini cheklagan bo'lsa, YAIM o'sishi ushbu cheklovni qisman qoplab, bank tizimida jamg'armalar oqimini saqlab qolgan. Natijada depozitlar iqtisodiy faollik oshgan davrda tezroq, iqtisodiy muhit nisbatan sokinlashgan davrda esa sekinroq o'sgan, biroq hech qachon beqarorlik manbaiga aylanmagan.

Tahlil jarayonida Yaponiya tijorat banklari faoliyatida depozitlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan yondashuvlar ham ko'rib chiqiladi. Xususan, markaziy bank tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosatining depozit bozoriga ta'siri, tijorat banklarining ushbu siyosatga moslashuvi va resurslarni saqlab qolish strategiyalari ilmiy asosda baholanadi. Bu borada Bank of Japan tomonidan qo'llanilayotgan monetar choralar depozitlar hajmi va ularning muddatlar bo'yicha taqsimlanishiga ta'siri nuqtai nazaridan tahlilning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Foiz stavkalari dinamikasi Yaponiya tijorat banklarida depozit operatsiyalarining so'nggi yigirma yil davomida qanday sharoitda rivojlanganini yaqqol aks ettiradi. Kuzatuv davrining dastlabki bosqichida, ya'ni 2000-yillarning ikkinchi yarmida muddatli depozitlar bo'yicha stavkalar nisbatan yuqori darajada shakllanib, ayniqsa 5-yillik depozitlar oddiy va 1-yillik depozitlarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega bo'lgan. Bu holat banklarning resurs bazasini uzoq muddatli va barqaror manbalar hisobidan mustahkamlashga intilganini ko'rsatadi [3].

Keyingi yillarda foiz stavkalarining keskin pasayishi va uzoq vaqt davomida juda past darajada saqlanib qolishi Yaponiya bank tizimiga xos bo'lgan past foizli muhitning depozit operatsiyalariga kuchli ta'sirini namoyon etadi. Mazkur davrda oddiy, 1-yillik va 5-yillik depozitlar o'rtasidagi foiz tafovutlari sezilarli darajada qisqarib, depozit mahsulotlarini narxlashda muddat omilining ahamiyati susaygan.


2 <https://www.fsa.go.jp/en/about/fsaanalyticalnotes/20250530/01.pdf> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



2-rasm. Yaponiyada depozit foizlari o'zgarishi dinamikasi³

Natijada depozitlarni jalb etishda foiz stavkalaridan ko'ra bankka bo'lgan ishonch, xizmat sifati va qulaylik omillari ustuvor ahamiyat kasb eta boshlagan. So'nggi yillarda kuzatilgan foiz stavkalarining o'sishi depozit bozorida yangi bosqich boshlanganidan dalolat beradi. Ayniqsa, 1-yillik muddatli depozitlar bo'yicha stavkalarining nisbatan tezroq oshirilishi banklarning resurs bazasini qisqa va o'rta muddatli depozitlar hisobidan qayta mustahkamlashga intilayotganini anglatadi. Umuman olganda, ushbu dinamik tahlil Yaponiya tijorat banklarida depozit operatsiyalari uzoq vaqt davomida past foizli sharoitga moslashgan holda rivojlanganini, hozirgi bosqichda esa depozitlarni narxlash mexanizmlari asta-sekin qayta faollashayotganini ko'rsatadi.

2025-yil mart holatiga ko'ra Yaponiya bank tizimida depozitlarning institutlar kesimidagi taqsimoti mamlakatda depozit resurslari qanchalik konsentratsiyalashganini hamda bank guruhlarining moliyaviy tizimdagi funksional rolini aniq aks ettirib beradi. Ushbu tarkibiy manzara Yaponiya tijorat banklarida depozit operatsiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos institutsional asoslarini tushunish uchun muhim empirik zamin hisoblanadi.



3-rasm. Yaponiyadagi depozit bozori ulushi (2025-yil mart oyi holatiga)⁴

³ <https://www.fsa.go.jp/en/about/fsaanalyticalnotes/20250530/01.pdf> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁴ <https://www.fsa.go.jp/en/about/fsaanalyticalnotes/20250530/01.pdf> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yirik banklar Yaponiya bank tizimining asosiy tayanch institutlari bo'lib, ular mamlakat miqyosida keng filial tarmog'iga, rivojlangan raqamli infratuzilmaga va ko'p funksiyali moliyaviy xizmatlar majmuasiga ega. Ushbu banklar, odatda, yirik korporatsiyalar, transmilliy kompaniyalar va aholining katta qismi bilan ishlaydi. Diagrammada depozitlarning 44 foizi aynan yirik banklar hissasiga to'g'ri kelayotgani ularning moliyaviy tizimdagi ustun mavqeini hamda aholining jamg'armalarini aynan ushbu banklarda saqlashga bo'lgan yuqori ishonchini ko'rsatadi [4]. Bu holat depozit operatsiyalarining markazlashgan xarakterga ega ekanini va resurslarning katta qismi tizimli ahamiyatga ega banklar qo'lida jamlanganini anglatadi.

Birinchi toifadagi mintaqaviy banklar asosan muayyan hududlar doirasida faoliyat yuritib, mahalliy aholi va biznes subyektlariga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan. Diagrammada ularning depozitlardagi ulushi 30 foizni tashkil etib, yirik banklardan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Bu guruhning ahamiyati shundaki, ular hududiy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda, kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda hamda aholining kundalik bank ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi [5]. Depozitlarning sezilarli qismi aynan ushbu banklarda jamlanishi Yaponiya bank tizimida hududiy muvozanat saqlanayotganidan dalolat beradi.

Ikkinchi toifadagi mintaqaviy banklar nisbatan kichikroq miqyosda faoliyat yuritib, ayrim hududlar yoki tor segmentlarga yo'naltirilgan xizmatlarni taklif etadi. Diagrammada ularning depozitlardagi ulushi 6 foizni tashkil etishi ushbu banklarning tizimdagi o'rni cheklangan bo'lsa-da, muayyan hududlar uchun muhim moliyaviy vositachi sifatida faoliyat yuritayotganini ko'rsatadi. Bu banklar, odatda, yirik banklar yetib bormagan yoki yetarli darajada qamrab olinmagan segmentlarda depozit operatsiyalarini amalga oshiradi.

Shinkin banklari kooperativ tamoyillarga asoslangan bo'lib, asosan kichik biznes va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan. Diagrammada ularning depozitlardagi ulushi 14 foizni tashkil etishi Yaponiya bank tizimida kooperativ moliyalashtirish modeli muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Ushbu banklar uchun depozitlar nafaqat moliyaviy resurs, balki a'zolar bilan uzoq muddatli ishonchli munosabatlarning asosiy poydevori hisoblanadi.

Shinkumi banklari esa yanada torroq kooperativ institutlar bo'lib, odatda mahalliy jamoalar va kichik iqtisodiy subyektlarga xizmat qiladi. Diagrammada ularning ulushi atigi 2 foizni tashkil etishi bu banklarning tizim miqyosida kichik rol o'ynashini ko'rsatsa-da, ijtimoiy jihatdan muhim vazifani bajarishini inkor etmaydi. Ular moliyaviy inklyuziya va hududiy barqarorlikni ta'minlashda yordamchi institut sifatida faoliyat yuritadi.

"Boshqalar" toifasiga kiruvchi institutlar depozitlarning 4 foizini tashkil etib, ushbu guruhga turli maxsus moliyaviy tashkilotlar va nisbatan tor ixtisoslashgan banklar kiradi. Ularning ulushi kichik bo'lsa-da, ayrim segmentlarda muhim funksional rolni bajaradi.

Yaponiya tijorat banklarida depozit operatsiyalarining rivojlanish mantiqi klassik "foiz stavkasi oshsa, depozit ko'payadi" degan sodda bog'lanishdan ancha murakkabroq ekanini taqdim etilgan ko'rsatkichlar izchil tasdiqlaydi. Bir tomondan, depozitlar hajmi 2020–2024-yillar oralig'ida uzluksiz oshgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, depozit foizlari uzoq davr davomida juda past darajada qolib, faqat keyingi bosqichda sezilarli darajada harakatlana boshlagan. Bu uyg'unlik Yaponiya bank tizimida depozitlar "daromad olish vositasi"dan ko'ra ko'proq "barqaror jamg'arma va likvidlik tayanchi" vazifasini bajarishini ko'rsatadi. Shunday sharoitda depozit bazasining o'sishi ko'proq institutsional ishonch, omonatchilarning ehtiyotkor moliyaviy xulq-atvori, banklar xizmatlarining qulayligi hamda iqtisodiy faollikdan kelib chiqqan pul oqimlari bilan izohlanadi [6].

Makroko'rsatkichlar nuqtai nazaridan inflyatsiya va YAIM o'zgarishlari depozitlar dinamikasiga turli kanallar orqali ta'sir qilganini ko'rish mumkin. Inflyatsiya ko'tarilgan davrlarda depozitlarning real qiymati bosim ostida qoladi, odatda bu holat omonatchilarni alternativ aktivlar tomon yo'naltirishi mumkin. Biroq Yaponiya sharoitida bunday "tezkor ko'chish" mexanizmi kuchli ishlamaydi: depozitlar ishonchli saqlash instrumenti sifatida ustuvor bo'lib qoladi, banklar esa foiz stavkalarini keskin oshirishdan ko'ra mijozlarni servis va xavfsizlik orqali ushlab turishga moyil bo'ladi. YAIM o'sishi esa, aksincha, daromadlar va korporativ pul oqimlarini kengaytirib, nominal depozitlar hajmining ko'payishiga zamin yaratadi. Natijada inflyatsiya depozitlarni bevosita rag'batlantirmagan bo'lsa-da, iqtisodiy o'sish jamg'arma bazasini kengaytirib, depozitlar o'sishini uzluksiz qo'llab-quvvatlagan.

Depozitlar o'sish sur'atlarining 2021-yilda yuqori bo'lib, keyingi yillarda me'yorlashuvi ham muhim signal hisoblanadi. Bu holat depozit bozorining "bir martalik kuchli sakrash"dan so'ng "barqaror o'sish trayektoriyasi"ga o'tganini anglatadi. Banklar nuqtai nazaridan bunday sharoitda resurs bazasini boshqarish, muddatlar bo'yicha muvozanatni ta'minlash va likvidlik ko'rsatkichlari bilan ishlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, depozit foizlari uzoq vaqt past bo'lib kelgan sharoitda banklar depozitlarning narxiga emas, balki ularning "sifat" ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadi: mablag'larning barqarorligi, mijozlar segmentlari, hisobvaraqlarning diversifikatsiyasi va depozit oqimlarining prognozlanishi asosiy boshqaruv obyekti sifatida namoyon bo'ladi [7].

Foiz stavkalari dinamikasi ushbu jarayonning ichki mexanizmini tushuntirishga yordam beradi. Uzoq muddat davomida talab qilib olinadigan va muddatli depozitlar bo'yicha stavkalar juda past darajada bo'lib, ular o'rtasidagi tafovut sezilarli darajada qisqargan. Bu holat depozit mahsulotlarini foiz stavkalari orqali differensiallash imkoniyatlarini cheklab, banklarni boshqa "nofoiz" ustunliklarga tayanishga majbur qilgan. Keyingi bosqichda foiz stavkalarining ko'tarilishi banklarning resurs bazasini qayta narxlash jarayoniga



kirishganini anglatadi. Amaliy jihatdan bu, birinchidan, omonatchilarning bankda qolish motivatsiyasini kuchaytirish, ikkinchidan, aktivlar bo'yicha narxlashdagi o'zgarishlar bilan resurslar narxini muvofiqlashtirish, uchinchidan esa muddat tuzilmasini qayta sozlash orqali likvidlik riskini yumshatish maqsadlariga xizmat qiladi. Shuningdek, depozit bozorida foiz stavkalarining tiklanishi banklararo raqobatni ham kuchaytiradi: yirik banklar ko'lam va ishonch omillari orqali ustunlik qilsa, hududiy va kooperativ institutlar mijozlarga yaqinlik va mahalliy aloqalar orqali depozitlarni ushlab turishga intiladi.

Bank guruhlarida depozitlarning taqsimoti va o'sish diapazonlari ham muhim xulosalarni shakllantiradi. Depozitlarning katta qismi yirik va birinchi toifadagi mintaqaviy banklarda jamlangani moliyaviy resurslarning yuqori darajada konsentratsiyalashganini anglatadi. Bunday sharoitda depozit operatsiyalarining barqarorligi tizimiy ahamiyatga ega banklar zimmasiga ko'proq mas'uliyat yuklaydi, chunki ular depozit bozorida "standart" belgilovchi subyektlar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, kooperativ banklar depozit oqimlarida mahalliy omillarga sezgir bo'lib, ayrim segmentlarda pasayishlarning ko'proq uchrashi hududiy-demografik bosim, mijozlar bazasining qarishi yoki raqamli raqobatning kuchayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu esa depozit operatsiyalarini rivojlantirishda "bir xil yechim hamma uchun" yondashuvi samara bermasligini, banklarning institutsional tabiatiga mos depozit strategiyalarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Yaponiya tajribasi depozit operatsiyalarini rivojlantirishda foiz instrumentlari bilan bir qatorda an'anaviy bankchilik qadriyatlari — ishonch, ehtiyotkorlik, xizmat madaniyati va barqarorlikni birlamchi omillar sifatida namoyon etadi. Past foizli muhitda depozitlarning barqaror resurs bo'lib qolishi bank tizimi mustahkamligining muhim indikator hisoblanadi, foiz stavkalari ko'tarila boshlagan bosqichda esa depozitlarni narxlash mexanizmlarining qayta faollashuvi banklar strategiyasining yanada moslashuvchanlashayotganidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari Yaponiya tijorat banklarida depozit operatsiyalarining rivojlanishi uzoq muddatli institutsional barqarorlik va jamg'arma madaniyati bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Depozitlar hajmining izchil o'sishi bank resurs bazasining mustahkamligini tasdiqlab, depozitlarning bank tizimi uchun asosiy va ishonchli moliyaviy tayanch bo'lib qolayotganini anglatadi. Shu bilan birga, depozitlar o'sish sur'atlarining vaqt o'tishi bilan me'yorlashuvi depozit bozorida barqaror o'sish rejimi shakllanganini ko'rsatadi.

Inflyatsiya va YAIM o'zgarishlari depozitlar dinamikasiga turli kanallar orqali ta'sir qilgani aniqlanadi: inflyatsiya depozitlarning real qiymati nuqtai nazaridan cheklovchi omil bo'lsa, YAIM o'sishi jamg'arma bazasini kengaytiruvchi va depozit oqimlarini qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shunga qaramay, Yaponiya sharoitida depozitlarning barqarorligi inflyatsiya tebranishlariga qaram bo'lmagan holda saqlanib qolmoqda, bu esa bank tizimiga bo'lgan ishonch va uzoq muddatli moliyaviy xulq-atvorning kuchliligi bilan izohlanadi.

Depozit foiz stavkalarining uzoq davr past darajada bo'lib, keyingi bosqichda o'sish tendensiyasini namoyon etishi depozit bozorida narxlash mexanizmining qayta faollashayotganini bildiradi. Bu holat banklar uchun depozit siyosatini yangilash, muddatlar bo'yicha resurs tuzilmasini qayta muvozanatlash hamda likvidlik riskini yanada puxta boshqarish zaruratini kuchaytiradi. Bank guruhlarida depozitlarning konsentratsiyalashuvi esa tizimiy banklarning depozit barqarorligidagi mas'uliyatini oshiradi, kooperativ va hududiy institutlarda esa mahalliy omillarga mos, segmentga yo'naltirilgan depozit strategiyalarini rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi.

Yaponiya tajribasi depozit operatsiyalarini rivojlantirishda foiz instrumentidan tashqari omillar, ayniqsa ishonch va xizmat madaniyati hal qiluvchi rol o'ynashini yaqqol namoyon etadi. Depozitlar tizimning barqaror tayanchi bo'lib qolishi uchun banklar depozit mahsulotlarini raqamli qulaylik, xavfsizlik va uzoq muddatli mijoz munosabatlari bilan uyg'unlashtirishi zarur. Ushbu yondashuv depozitlar hajmini saqlash va oshirish bilan birga, bank tizimi barqarorligini ta'minlashda eng samarali yo'l sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Monetary Fund (IMF). (2025). Use of Financial Services, Liabilities: Outstanding Deposits at Commercial Banks for Japan (JPNFCLODCXDC). Federal Reserve Bank of St. Louis (FRED) ma'lumotlar bazasi.
2. Bank of Japan. (n.d.). Interest Rates on Deposits and Loans: Average Interest Rates on Time Deposits by Term. BOJ Statistics (Time-Series Data Search).
3. Bank of Japan. (2024, November 12). Release of Latest "Amounts Outstanding of Deposits by Depositor" Data. BOJ statistik xabarnomasi.
4. World Bank. (2025). GDP growth (annual %) – Japan (NY.GDP.MKTP.KD.ZG). World Development Indicators.
5. Bank of Japan. (2025, October 23). Financial System Report: October 2025 (depozitlar tarkibidagi siljishlar va struktura omillar bo'yicha tahliliy izohlar).
6. Deposit Insurance Corporation of Japan (DICJ). (2024). Annual Report 2023–2024 (depozitlarni kafolatlash instituti va tizim barqarorligi konteksti).



7. Federal Deposit Insurance Corporation. (2025). Balance Sheet: Total Liabilities and Capital: Deposits: Domestic Office Deposits: Brokered Deposits (QBPBSTLKDPDOFFDPBRKDP). FRED, Federal Reserve Bank of St. Louis. Available at: <https://fred.stlouisfed.org/series/QBPBSTLKDPDOFFDPBRKDP>
8. Financial Services Agency (Japan). (2025, May 30). Current trends in deposits under the increasing interest rate environment (FSA Analytical Notes).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100